



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGINING
HAY’AT MAJLISI BAYONI

2022-yil 26-avgust

14 - son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: N.Xusanov – Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri,
Hay’at raisi

Qatnashganlar: Hay’ati a’zolari:
E.Muxitdinov, B.Umurzakov, N.Yakubov, Q.Odinayev,
Sh.Po‘latov, M.To‘rabekov, T.Maxmudov.

Vazirlik markaziy apparati tarkibiy (*departament, inspeksiya, boshqarma, bo‘lim va sho‘ba*) bo‘linmalari boshliqlari

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmasi boshliqlari Tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari

HAY’AT KUN TARTIBI:

Joriy yilning 15-19 avgust kunlari vazirlikning Hududiy bandlik boshqarmalari va tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijrosi haqiqiy holatini o‘rganish va tizimli muammolarni aniqlash, qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda murojaatlar bilan ishlash holati bo‘yicha olib borilgan o‘rganish natijalarining ma’lumoti to‘g‘risida.

(Xusanov, Muxitdinov, Umurzakov, Yakubov, Odinaev, Po‘latov, To‘rabekov, Maxmudov, Abdullaev, Asqarov, Toshmatov, Egamov, Abdukarimov, Temirov Xusanov)

Yig‘ilishda Fuqarolar huquqlarini himoya qilish va murojaatlar bilan ishlash masalalari bo‘yicha tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan joriy yilning 15-19 avgust kunlari vazirlikning hududiy tuzilmalarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash holati bo‘yicha olib borilgan o‘rganish natijalari ma’lumoti muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, Hay’at raisi N.Xusanov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil

31-maydagi “ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-son qarori, 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 12-sonli qarori va 1999-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarorlari talablarini qo‘pol ravishda buzgan rahbarlar ogohlantirilishi va vazirlikka yuklatilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlashga mas’ul boshqarma boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari hamda barcha xodimlari faoliyati baholanishi va lavozimga loyiqligi masalasi ko‘rib chiqilishi eslatib o‘tdi.

Mehnat organlarida ishchi guruh tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish davomida murojaatlar bilan ishlashni tashkil qilish borasida muayyan ishlar bajarilganiga qaramay, bir qancha kamchiliklar aniqlangan, xususan, Buxoro shahar ABKMda 2022-yil 1-avgust holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezident virtual va Xalq qabulxonalari orqali **367 ta** murojaat kelib tushgan, shundan **139 tasi** (38 foizi) takroriy murojaat bo‘lib, **18 nafar** fuqaro ikki va undan ko‘p marotaba murojaat etgan, ushbu murojaatlarni kamaytirish yuzasidan tizimda yetarli darajada ishlar tashkil etilmagan. Shuningdek, Surhondaryo viloyati Bandlik bosh boshqarmasida 2022 yil 1 avgust kuni holatiga ko‘ra Boshqarmaga **156 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, shundan **38 tasi** takroriy kelib tushgan hamda **7 ta** murojaat muddati o‘tib ijro etilgan, javob xatlarini rahbarning familiyasi va ismi hamda lavozimi yozilgan joyga rahbar o‘rinbosarlari va boshqa xodimlar tomonidan imzolash holatlari aniqlangan. Shunga o‘xshash holatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Navoiy viloyati, Buxoro viloyati va Surxondaryo viloyati Bandlik bosh boshqarmalari hamda Mo‘ynoq, Nurota, Xatirchi, Oltinsoy, Muborak, Koson, Sharof Rashidov hamda Mirzobod tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi muassasa Nizomining mavjud emasligi murojaatlar faoliyatini tartibga soluvchi markaz nizomi va lavozim yo‘riqnoma ishlab chiqilmagan hamda mansabdorlar o‘rniga javob xatlarini boshqa shaxslar tomonidan imzolash holatlari aniqlangan.

Qolaversa Boshqarma boshliqlari tomonidan tuman (shahar) larda ommaviy sayyor qabul o‘tkazish bo‘yicha reja grafiklar ishlab chiqilmagan hamda rahbar va uning o‘rinbosarlari yillik, oylik, haftalik ish rejalari va ularning ijrosi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘liq yuritilmagan.

Shuningdek har haftaning dushanba va juma kunlari ijro intizomi holati bo‘yicha muhokama o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, rahbar buyrug‘i bilan qabul jadvalari joylarda tasdiqlanmagan va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi bo‘yicha ma’lumotlar

mavjud emas, tizimga kelib tushayotgan murojaatlarni samarali nazorati va kompleks tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilmagan, aholini noroziligini keltirib chiqarayotgan, murojaat qoldirishga majbur qilayotgan tub muammolar aniqlanmagan, ularni bartaraf etishga qaratilgan ta'sirchan choralar o'z vaqtida ko'rilmaganligiga to'xtalib o'tdi.

Kun tartibidagi masalani Hay'at majlisi muhokama etib,

Qaror qiladi:

1. 2022-yilning 15-19-avgust kunlari vazirlikning Hududiy bandlik boshqarmalari va tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida Jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari ijrosi haqiqiy holatini o'rganish va tizimli muammolarni aniqlash, qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda murojaatlar bilan ishlash holati bo'yicha olib borilgan o'rganish natijalari to'g'risida bergan **ma'lumoti ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Vazirlik markaziy apparati va hududiy bandlik bosh boshqarmalari hamda tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashdagi faoliyati **yetarli darajada emasligi ko'rsatib o'tilsin.**

3. Kadrlar boshqarmasi (A.Egamov) kelgusida vazirlik tomonidan tasarrufiy tashkilotlar, hududiy bandlik bosh boshqarmalari hamda tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga yangi tayinlanadigan rahbar xodimlarning nomzodlarini ishga qabul qilishda ularning bandlik sohasidagi ish tajribasiga qattiq e'tibor qaratilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali hamda boshqa manbalardan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqishda tizimli nazoratni yo'lga qo'yilmaganligi uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan boshqarma boshliqlari **qattiq ogohlantirilsin.**

5. Davlat mehnat inspeksiyasi (Q.Odinaev), Tashkiliy va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (M.To'rabekov), Band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish boshqarmasi (T.Mahmudov), Kasb-hunarga o'qitishni tashkil etish va kasbiy malakani rivojlantirish departamenti (X.Abdullaev) va Tashqi mehnat migratsiyasi va qaytgan mehnat migrantlarining reintegratsiya dasturlari boshqarmasi (Z.Asqarov):

o'z yo'nalishlari bo'yicha kelib tushayotgan murojaatlarda ko'tarilayotgan tizimli muammolarni tahlil qilish, aholini noroziligini keltirib chiqarayotgan, murojaat qoldirishga majbur qilayotgan tub muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ta'sirchan choralar ko'rish yuzasidan hududiy Bandlik bosh boshqarmalari va tuman (shahar) Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari mas'ul xodimlari ishtirokida **o'quv seminarlari tashkil etsin;**

har chorak yakuni bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish natijalarini vazir va vazir o'rinbosarlari rahbarligida muhokama qilib borsin.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan

“Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom talablariga zid ravishda tizimli kamchiliklarga va mas’uliyatsizliklarga yo‘l qo‘ygan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Navoiy hamda Sirdaryo viloyatlari Bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari ishlari **qoniqarsiz** deb topilsin va yuqorida qayd etilgan hududlar Bandlik bosh boshqarmalarining Tashkiliy va ijro intizomi nazorati xodimlari **qattiq ogohlantirilsin.**

Mo‘ynoq, Nurota, Xatirchi, Oltinsoy, Muborak, Koson, Sharof Rashidov, Mirzobod tumanlari hamda Buxoro shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari direktorlariga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi (181-moddasi)ga asosan **“xayfsan”** intizomiy jazosi qo‘llanilsin hamda natijasi haqida vazirlikka axborot kiritilsin.

7. Tashkiliy va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (M.To‘rabekov):

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Navoiy hamda Sirdaryo viloyati Bandlik bosh boshqarma boshliqlari hamda birinchi o‘rinbosarlari joylarda ijro intizomi yetarli daraja nazorat qilinmaganligi hamda murojaatlarni ko‘rib chiqishda qonun talablariga amal qilinmaganligi, shahar va tumanlar ABKMLari rahbarlariga nisbatan talabchanlikni bo‘shashtirib yuborilganligi inobatga olib, **bir hafta muddatda** lavozimga loyiqligi masalasi ko‘rib chiqilsin hamda rahbariyatga axborot kiritilsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyat Bandlik bosh boshqarma boshliqlariga:

Vazirlikning 2022-yil 12-avgustdagi 224-ICH buyrug‘i bilan tasdiqlangan savolnomaga asosan joriy yilning sentabr-dekabr oylarida tuman (shahar) markazlarining faoliyati to‘liq o‘rganilsin hamda natijasi yuzasidan vazirlikka axborot kiritilsin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari hamda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari direktorlariga:

aholi murojaatlarida, fuqarolarni bugungi kunda qiynayotgan, Davlat rahbariga murojaat qilishga majbur qilayotgan muammolarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirish, joylarda murojaatlarning sabablarini bartaraf etish orqali ularni oldini olishga, tizimdagi muammolar bilan bog‘liq oxirgi o‘zgarishlarni aholiga yetkazishga, mavsumiy murojaatlarning oldini olishga qaratilgan sayyor va ommaviy qabullar tashkillashtirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda byurokratizm, rasmiyatchilik hamda sansalorlik holatlariga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik, muddatlarga va Qonunning barcha talablariga so‘zsiz rioya etish, Jismoniy va yuridik shaxslar va ularning vakillarini qabul qilishga hamda murojaatlarni muallifning ishtirokida ko‘rib chiqishga alohida e‘tibor qaratish;

rahbarning shaxsiy va sayyor qabullardagi murojaatlarni alohida jurnallarda ro‘yxatga olgan holda ish yuritish;

markazlarda ijro intizomi uchun mas'ul qilib belgilangan xodimlarni alohida buyruq asosida birlashtirish choralarini ko'rish;

tizimli muammolar bo'yicha vazirlikka axborot kiritib borishni tashkil etish;

eng ko'p murojaatlar kelib tushayotgan yo'nalishlardagi tizimli muammolar, ularning kelib chiqish va hal etilmaslik sabablari, keşkin o'sishi va buning sabablari, qonunchilik, qarorlardagi muammo, bo'shliqlarni tahlil qilish va fuqarolar e'tirozlarining asosiy sabab, omillarini o'rganish va axborot kiritish;


murojaatlar soni oshgan hududlarga alohida e'tibor bergan holda vazirlik rahbariyatining **sayyor qabullarni** tashkil etish orqali ularni kamaytirish va aholi ishonchini oqlash;

hududiy bosh boshqarma va tuman (shahar) markazlariga tashrif buyuruvchi fuqarolarga qulayliklar yaratish;

viloyat va tuman (shahar)lardagi Prezident Xalq qabulxonalari bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish **vazifalarini amalga oshirsin.**

10. Ushbu Hay'at qarorini nazorat qilish vazir o'rinbosarlari (E.Muxitdinov, B.Umurzakov, N.Yakubov) zimmasiga yuklansin.

Hay'at raisi



N.Xusanov

